

BIZNESDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TAHLILI

Karimova Aziza Erkinovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti, "Iqtisodiyot" fakulteti,

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti katta o'qituvchisi

aziza1777@gmail.com

Atajonov Umidjon Shamrat o'g'li

3-kurs Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo'nalishi talabasi

umidjonatajanov2000@gmail.com

Karimova Feruza Durbek qizi

3-kurs Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Biznesda raqamli texnologiyalarning biznesda qo'llanilishi va ularning samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Zamonaviy biznes dunyosida raqamli texnologiyalar juda muhim rol o'ynaydi va kompaniyalarga raqobatbardosh bo'lish, samaradorlikni oshirish hamda yangi imkoniyatlar yaratish imkonini beradi. Tahlil raqamli texnologiyalarning turli yo'nalishlarida, jumladan, marketing, ishlab chiqarish, mijozlar bilan aloqalar va boshqaruv jarayonlarida qo'llanilishini ko'rib chiqadi. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kompaniyalar uchun raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil bo'lib, bu jarayonda kompaniyalarning raqamli transformatsiya jarayonini to'g'ri boshqarish zarur. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida duch kelinadigan muammolar va ularni yengish yo'llari ham ko'rib chiqiladi.

Kalitli so'zlar: biznes, raqamli texnologiya, raqamlashtirish va axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot, raqamli transformatsiya, resurslarini boshqarish tizimi

Аннотация. Настоящее исследование посвящено изучению применения цифровых технологий в бизнесе и их эффективности. В современном деловом мире цифровые технологии играют чрезвычайно важную роль, предоставляя компаниям возможности для повышения конкурентоспособности, увеличения эффективности и создания новых возможностей. Анализ рассматривает применение цифровых технологий в различных направлениях, включая маркетинг, производство, взаимодействие с клиентами и процессы управления. Эффективное использование цифровых технологий является важным фактором повышения конкурентоспособности компаний, и в этом процессе необходимо правильно управлять цифровой трансформацией компаний. Кроме того, рассматриваются проблемы, возникающие при внедрении цифровых технологий, и способы их преодоления.

Ключевые слова: бизнес, цифровая технология, цифровизация и информационные технологии, программное обеспечение, цифровая трансформация, система управления ресурсами.

Abstract: This study is dedicated to examining the application of digital technologies in business and their efficiency. In the modern business world, digital technologies play an extremely important role, providing companies with opportunities to enhance competitiveness, increase efficiency, and create new opportunities. The analysis considers the application of digital technologies in various areas, including marketing, production, customer interactions, and management processes. Effective use of digital technologies is a crucial factor in improving the competitiveness of companies, and proper management of the digital transformation process is necessary. Additionally, the challenges encountered during the implementation of digital technologies and ways to overcome them are also addressed.

Keywords: business, digital technology, digitalization and information technology, software, digital transformation, resource management system.

KIRISH

Zamonaviy sharoitlarda iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish va axborot texnologiyalari faoliyatning barcha sohalariga kirib bormoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham raqamli iqtisodiyotni iqtisodiy rivojlanishning asosiy "drayveri"ga aylantirish va uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish rejalashtirilgan. Dasturiy ta'minot ishlab chiqarish hajmini 5 barobar, ularning eksportini 10 barobar 500 million dollarga yetkazish vazifasi belgilandi.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilandi va mazkur vazifalar ijrosi o'laroq, mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o'tilishi qadamma-qadam amalga oshirilmoqda.

Ishlab chiqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalarning kirib borishi bilan korxonalarning raqobatdosh ustunlik manbalariga, ularning faoliyati va boshqaruvining samarali kontseptsiyalariga yangi talablar qo'yilmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o'tishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni prognozlash, shuningdek, salbiy oqibatlarini minimallashtirish bo'yicha yechim va takliflar ishlab chiqish korxona faoliyatini tashkil etishning asosiy shartiga aylanmoqda.

METODLAR

Tahlil raqamli texnologiyalarning turli yo'nalishlarida, jumladan, marketing,

ishlab chiqarish, mijozlar bilan aloqalar va boshqaruv jarayonlarida qo'llanilishini ko'rib chiqadi. Bu yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: raqamli marketing vositalari (ijtimoiy media, SEO, kontent marketing, e-mail marketing), raqamli ishlab chiqarish (IoT, big data tahlili, avtomatlashtirilgan tizimlar), mijozlar bilan raqamli aloqalar (CRM tizimlari) va raqamli boshqaruv (ERP tizimlari, bulutli hisoblash, kiberxavfsizlik).

Sanoat korxonalarida mavjud resurslar va biznes-jarayonlarni samarali boshqarishning innovatsion texnologiyalar va biznes jarayonlarini optimallashtirish usullariga asoslangan tizimi raqobat ustunligiga erishishning muhim jihati hisoblanadi.

O'zbekiston sanoatini rivojlantirib borish raqamlashtirilgan texnologik platformalarni yaratish, tashqi va ichki bozorlar uchun yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar yetkazib beruvchi yuksak texnologiyali korxonalarni tashkil etishni taqazo etadi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-oktabrdagi pf-6079- sonli Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida ham iqtisodiyotning real sektorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga



oshirilishi belgilandi:

korxona ta'minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish; zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab

chiqarishdagi to'xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish;

innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;

savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o'zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish;

boshqaruv ma'lumotlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish;

2025 yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ulushini 90 foizga yetkazish; Iqtisodiyotni yangi texnologik bosqichga o'tishi bilan mamlakat ishlab chiqarish tuzilmalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkiliy-iqtisodiy ta'minoti, boshqaruv usullari zamonaviy yodashuvlarni shakllantirishga extiyoj paydo

bo'lmogda.

NATIJALAR

Iqtisodiy isloxoqlarni chuqurlashtirish sharoitida sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va robotlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or usul va uslublarini joriy etish, uning raqamli intellektuallashtirish darajasini oshirish jarayonlari jadal rivojlanmoqda. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuvlar qisqa vaqt ichida to'liq axborot almashinuvi, ishchilar va xodimlar sonini qisqartirish, ularning kompetentligini oshirish, moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari va robotlashtirish komplekslarini joriy etishga tayanadi.

Buning uchun innovatsion, yuqori texnologik mahsulot chiqaruvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga e'tibor qaratilishi lozim. Raqamli ishlab chiqarish sohasida»buyumlarning sanoat interneti"«ishlab chiqarishning additive texnologiyalari"«bulutli texnologiyalar"«sun'iy intellekt"«aqli robotlashtirilgan ishlab chiqarish»kabi zamonaviy yo'nalishlar rivojlanib bormoqda, tashkilot qarorlarini qabul qilishda imitatsion va iqtisodiy matematik modelashtirishdan foydalanilmoqda.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kompaniyalar uchun raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil bo'lib, bu jarayonda kompaniyalarning raqamli transformatsiya jarayonini to'g'ri boshqarish zarur. Kompaniyalar o'z mahsulot va xizmatlarini kengroq auditoriyaga yetkazib, mijozlar bilan yanada yaqin aloqalar o'rnatishlari mumkin. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkoniyatlari ham mavjud.

MUHOKAMA

Zamonaviy sharoitlarda ishlab chiqarishni tashkil etishga mahsulot hayot siklini boshqarishni raqamlashtirish asosida zaruriy kompetitlikka ega bo'lgan yuqori malakli xodimlar (ishchilar) ning innovatsion mehnat vositalari va buyumlari bilan ma'lum bir muhitda hamda vaqtda samarali uyg'unlashtirish jarayoni sifatida qaraladi.

Fikrimizcha, ishlab chiqarishni raqamlashtirishga korxonalarda eskirgan texnologiyalardan foydalanib kelayotganligi (64%) ma'lum bir tajriba, bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan mutaxassislarini yetishmasligi (61%) mavjud va yangi texnologiyalar o'rtasida integratsion aloqalarni sustligi (62%) kabi omillar to'stinlik qilmoqda.

Ishlab chiqarishni raqamli transformatsiyasi sohasidagi tadqiqotlarning natijalariga ko'ra (ko'rsatishiga) raqamli texnologiyalar va boshqaruv usullaridan foydalanayotgan korxonalar o'z raqobatchilariga nisbatan 26% ga ko'proq foyda ko'rishar ekan. Raqamli texnologiyalashga yetarli darajada mablag' sarflagan xolda boshqaruvga kam e'tibor qaratayotgan korxonalarning moliyaviy natijalari 11% ga past, faqat boshqaruv jarayonini modernizatsiyalash hisobiga esa faqat 9% ga qo'shimcha daromad olish mumkin.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida duch kelinadigan muammolar va ularni yengish yo'llari ham ko'rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalarning biznesdagi ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi va kompaniyalarga o'z faoliyatini raqamlashtirishda yo'nalish beradi. Kompaniyalar raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun strategik rejalashtirish va texnologik innovatsiyalarni joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W.W. Norton & Company.
2. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. *Harvard Business Review*, 92(11), 64-88.
3. Westerman, G., Bonnet, D., & McAfee, A. (2014). *Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation*. Harvard Business Review Press.
4. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). *Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice*. Pearson.
5. Laudon, K. C., & Traver, C. G. (2020). *E-Commerce 2020: Business, Technology, Society*. Pearson.
6. Kane, G. C., Palmer, D., Phillips, A. N., Kiron, D., & Buckley, N. (2016). Aligning the Organization for Its Digital Future. *MIT Sloan Management Review*, 58(1).
7. Bharadwaj, A., El Sawy, O. A., Pavlou, P. A., & Venkatraman, N. (2013). Digital Business Strategy: Toward a Next Generation of Insights. *MIS Quarterly*, 37(2), 471-482.
8. Ross, J. W., Beath, C. M., & Sebastian, I. M. (2017). Designing and Executing Digital Strategies. *Thirty Eighth International Conference on Information Systems*.
9. Parviainen, P., Tihinen, M., Kääriäinen, J., & Teppola, S. (2017). Tackling the digitalization challenge: How to benefit from digitalization in practice. *International Journal of Information Systems and Project Management*, 5(1), 63-77.
10. Schniederjans, D., Curado, C., & Khalajhedayati, M. (2020). Supply chain digitization trends: An integration of knowledge management. *International Journal of Production Economics*, 220, 107439.